



MAKTABGACHA YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTANT BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li

Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

e-mail: haqberdiyevjamol1992@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5855156>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi koxlear implantant bolalarning tasviriyl faoliyat vositasida rivojlantirish xususiyatlari tasvirlangan. Maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bo'lgan koxlear implantant bolani rivojlantirishning samarali usullari ta'limiy-tarbiyaviy-korreksion maqsadni amalga oshiruvchi, lug'at boyligini oshiruvchi faoliyat turi tahlil qilingan ENB bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha bir nechta texnologiyalar tasvirlangan.

Kalit so'zlar.

Maktabgacha ta'lim, koxlear, implantant, tasviriyl faoliyat, texnologiya, ko'rgazmalilik, lug'at.

Annotation.

This article describes the developmental features of cochlear implant children in preschool age through visual activity. The article describes several technologies for teaching children ENB visual arts, which analyzes the types of activities that increase the vocabulary, effective ways to develop a cochlear implant child with hearing impairment in preschool age.

Keywords.


Preschool education, cochlear, implant, visual activity, technology, visual aids, dictionary.

Аннотация.

В статье описаны особенности развития детей с кохлеарным имплантатом в дошкольном возрасте через зрительную деятельность. В статье описаны несколько технологий обучения детей изобразительному искусству ENB, проанализированы виды деятельности, увеличивающие словарный запас, эффективные способы разработки кохлеарного имплантата ребенку с нарушением слуха в дошкольном возрасте.

Ключевые слова.

Дошкольное образование, кохлеарное дело, имплант, зрительная деятельность, техника, наглядные пособия, словарь.






Davlat umumilliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta'lim sifat samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo'naltirildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida eshitishida nuqsoni bor bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishning o'rni beqiyos.

Asosiy maqsadlardan biri zamonaviy tasviriy san'at orqali koxlear implantatni bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Maktabgacha ta'limning vazifasi ENB bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning [tafakkurini rivojlantirish](#), o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Tasviriy faoliyati bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi va maktabda tasviriy san'at dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan, san'at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar xal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda [fikir yuritishning analiz](#), sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni shakllantiradi.[3]

Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. [Koxlear implantat bola rangni](#), shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bunday bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho





berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi.

Tasviriy faoliyat vositasida bolani rivojlantirishning samarali usullari ta'limiy-tarbiyaviy-korreksion maqsadni amalga oshiruvchi yagona yo'l sifatida mashg'ulotdagi bolaning va ota-onaning butun faoliyatini tashkil etish vositasi sanaladi. Y.B.Babanskiy tasviriy san'at metodlarini faoliyatning umumiy harakteriga qarab, 3 guruhga klassifikatsiyalagan:[1]

1-guruh: O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish. Bunga o'quvchilarning ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, induktiv va deduktiv, reproduktiv va muammoli-izlanuvchan, hamda mustaqil ishlar kiradi.

2-guruh: Ta'lim berishning o'quv faoliyatini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) va motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari.

3-guruh: O'quv faoliyatida nazorat va o'z o'zini nazorat qilish metodlari; og'zaki nazorat o'z o'zini nazorat qilish; yozma nazorat - o'z o'zini nazorat qilish; laboratoriya amaliy nazorat- o'z o'zini nazorat qilish;

Tasviriy faoliyat bola lug'at boyligini oshiradi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Koxlear implantant bolalarni tasvirning muhim usullariga, turli tasviriy materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiylaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasviriy usullarni ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida o'rgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Har bir usuldan o'ylab, mashg'ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, koxlear implantant bolaning qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak.

Ko'rgazmalilik ENB bolalar tasviriy faoliyatining moddiy hissiy asosini egallaydi, so'z esa to'g'ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarini va tasvirlayotganlarini umumlashtirishni shakillanishiga yordam beradi. ENB bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlarda "7 qadam"





texnologiyasi, “Qumli rasmlar” texnologiyasi, “Paxtali tayoqchalar” texnologiyasi, “Rangli mel” texnologiyasi, “Aplikatsiya elementlari” texnologiyalaridan mavzuning asosiy qismida va “3x4 texnologiya”, “Tushunchalar tahlili”, “Zig-zag”, “Gugurt cho’pi”, “Kubik”, “Mozaika” va “Bingo” texnologiyalaridan mavzuni mustahkamlashda foydalaniladi. Pedagogik innovatsiyalashuv ta’limning ilmiy bilimlar, metodologiyalarni jamiyat rivojlanishi, ta’limga qo’yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darsjasiga bog’liq holda moslashuvchanligi deb talqin qilish mumkin.[2] Mazkur texnologiyalar koxlear implantant bolalarni tasviriy faoliyati samaradorligini talab darajasida ortganligi omili ekanligi dalillanadi.

«Mozaika» (terma ish)

Ta’rifi

Bu ish to’rt bosqichda amalga oshiriladi (har bosqichning davomiyligi 10 daqiqagacha). Ishtirokchilar oldindan tayyorlab qo’yilgan va har bir stolga qo’yilgan harfli indekslar (A, V, S) bilan belgilangan kartochkalar bo’yicha uchliklarga bo’linadilar.

1. O’qituvchi uchliklarga topshiriq beradi: masalan, biron mavzu bo’yicha tezislar tuzish, o’rganilayotgan hodisa yoki voqeaning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o’rganilayotgan mavzu bo’yicha boshqa guruh o’quvchilari uchun savollar tayyorlashni taklif qiladi. Natijada uchlikning har bir o’quvchisida kichik guruhda kelishilgan qaror yozilgan varaq hosil bo’ladi.

2. Ikkinchi bosqichda ishtirokchilar boshlang’ich guruhlarini tark etib, harfli indekslarni birlashtirish (A-A; V-V va sh.o’.) asosida muvaqqat juftliklarni hosil qiladilar. Juftliklarda ishtirokchilar boshqa takliflar bilan tanishadilar, o’z yechimlari konspektini to’ldiradilar va aniqlashtiradilar, zarur bo’lsa – ikki turli guruhlarining yondashuvlarini o’zida mujassamlashtiradigan yangi konspektni tuzadilar.

3. Navbatdagi bosqich shakli bo’yicha avvalgi bosqichni deyarli takrorlaydi: barcha ish “harflar birligi” asosidagi juftliklarda, biroq yangi sheriklar bilan olib boriladi. SHu tariqa, uchinchi bosqich yakuniga kelib har bir ishtirokchi muammoni hal qilishning ko’p variantli konspektiga ega bo’ladi.

4. Yakunlovchi bosqichda ishtirokchilar dastlabki uchliklarga qaytadilar, va boshqa guruhlarining fikrini bila turib, eng to’liq qarorni qabul qilish, o’z nuqtai nazariga “sayqal berish” imkoniga ega bo’ladilar.

Afzalliklari





Ushbu uslubiyat o'qituvchiga yechilayotgan masalalarning variativligini, ya'ni bir necha yo'llar orqali yechish mumkinligini namoyish etishga imkon beradi. Ayni paytda, o'quvchilar diqqatini bu jarayonda "to'g'ri" va "noto'g'ri" yechimlar bo'lishi mumkin emasligiga qaratish lozim. Taklif etilgan har bir variantda oqilona fikr mujassamlashgan, faqat uni "o'stirish", ya'ni rivojlantirish lozim.

Qiyinchiliklari

Katta vaqt ajratilishini talab qiladi, shuning uchun o'qituvchiga ushbu mashqni darsga moslashtirish yoki belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilish lozim.

"3x4" texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi.

Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi) larni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib fikrlab hal etish,echimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni ummlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo(yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek,fikrlarni ma'qullay olishga o'rgatadi.Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan avval yakka holda,so'ngra ularni kichik guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi:talaba (yoki o'quvchi)larning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga,jamoat bo'lib ishlashga,intilishga;fikrlashni jamlab,ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga;qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olish o'rganish.

Texnologiyaning qo'llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlariga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Kubik

Maqsadi:

- Bu usul ko'rilyotgan masalani turli tomondan, qadamba-qadam, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishda tasavvur etish;
- Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- Faollikka undash;
- Tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish;
- Og'zaki nutqni rivojlantirish;





- Idrok etishqobiliyatini rivojlantirish;

Mazmuni:

- Mavzu (tushuncha) haqida e'lon qilinadi.
- Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar yakka tartibda ishlaydilar.

Qo'llanilishi: Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

Bu nima? Ko'rayotgan narsani rangi, o'lchamlari, shaklini tasavvur eting, eslang va yozma ravishda ta'riflang?

Taqqoslang: u nimaga o'xshaydi, nimadaan farq qiladi?

Assotsatsiya: Taasurotingizni izohlang? U sizni nima to'g'risida o'ylashga majbur qildi? Hayolingizga nima keldi?

Tahlil qiling: Bu nimadan va qanday yasalgan? Nimalardan tashkil topgan?

Qo'llang: Bu nimaga yaraydi? Uni qayerda qo'llash mumkin?

"Xa" va "Yo'q" larni asoslang. Bunda ishonchli dalillarva asoslovchi fikrlarni ayting.

Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muhim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi.[5] Maktabgacha ta'lim muassasasida keltirilgan mashg'ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi,





maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Е.С.Маслова Формирование изобразительной деятельности детей старшего дошкольного возраста с нарушенным слухом Автореф.дис....канд.пед.наук.-Москва, 2010.-27.с.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения – М.:ИРПО,1996.-336с
3. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. Maktabgacha ta'lim muassasalarda applikatsiya mashg'ulotlari. T., 2014.
4. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2017.
5. Mamarajובה Z.N., Koxlear implantli va eshitish moslamalari o'rnatilgan bolalar eshituv-nutqiy reabilitatsiya dasturiga oid qo'llanma/uslubiy qo'llanma/- Toshkent.2019.201-202.b.
6. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(64). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183
7. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). БОЛАЛАРНИНГ МАКТАБГА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(70). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6303
8. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF COCHLEAR IMPLANT IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF CHILDREN WITH HEARING DISORDERS . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(80). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6742
9. Jamoliddin Haqberdiyev, KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLANI REABILITATSIYA QILISH MASALALARI , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>
10. Haqberdiyev, J. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BOR BO'LGAN BOLALARNING O'YINLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA KORREKSION ISHLARINING XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и*





психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4748>

11. Haqberdiyev, J. (2022). KOXLEAR IMPLANTAT BOLALARDA OG'ZAKI NUTQNI
IDROK ETISHNI O'RGANISH VA RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK USULLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном
образовании, 1(4). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4747>

12. Haqberdiyev, J. (2021). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАДЕРЖКУ РЕЧИ И
ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. Журнал Педагогики и психологии в современном
образовании, (1). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1204>

